

KASBIY STANDART

Baliqchilik

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Baliqchi (baliq boquvchi)", "Ichki suv havzalari mashinalari va mexanizmlari mashinisti" va "Ixtiolog" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy

va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 5-apreldagi "2023-yilda Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-113-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standart pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	Baliqchilik	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Baliqlarni saqlash, oziqlantirish, ichki suv havzalari dastgoh va mexanizmlarini boshqarish, suv bioressurslaridan kompleks tarzda samarali foydalanish va muhofazasini ta’minlash	
3	IFUT bo’yicha seksiya, bo’lim, guruh, sinf va kichik sinf:	A seksiya Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi 03 Baliq ovlash va akvakultura 03.1.Baliq ovlash 03.11., 03.11.0 Dengizlarda baliq ovlash 03.12., 03.12.0 Chuchuk suvlarda baliq ovlash 03.2 Akvakultura 03.21.,03.21.0 Dengiz akvakulturasini 03.22.,03.22.0 Chuchuk suv akvakulturasini	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Baliqlarni saqlash, oziqlantirish texnologiyalariga rioya qilish, kasalliklariga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish, suv bioresurslarini monitoring qilish, ichki suv havzalari dastgoh va mexanizmlarini boshqarish	
5	Qamrab olingan kasblar ro’yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		62210002 Baliqchi (baliq boquvchi)	3
		62220001 Ichki suv havzalari mashinalari va mexanizmlari mashinisti	3
		21313008 Ixtiolog	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasb		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kod va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	62210002 Baliqchi (baliq boquvchi)	A1.3	Baliqlarni urchitish, parvarishlash va chuchuk suv havzalariga qo'yib yuborish	A1.01.3	Jinsiy mahsulotlar olish va uvuldiriqnlarni inkubatsiyalash
				A1.02.3	Baliq urug'i materiallarini yetishtirish
				A1.03.3	Tovar baliq yetishtirish
		A2.3	Binolar va suv havzalariga xizmat ko'rsatish	A2.01.3	Suv havzalarini baliq yetishtirishga tayyorlash
				A2.02.3	Obyektlarga texnik xizmat ko'rsatish
2	62220001 Ichki suv havzalari mashinalari va mexanizmlari mashinisti	B1.3	Ichki suv havzalari dastgoh va mexanizmlarini foydalanishga tayyorlash hamda boshqarish	B1.01.3	Ichki suv havzalari dastgohlarini foydalanishga tayyorlash va boshqarish
				B1.02.3	Ichki suv havzalari dastgohlarida mavjud kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish
3	21313008 Ixtiolog	D1.6	Ixtiologik kuzatuvlar natijasida to'plangan materiallarni laboratoriya sharoitida qayta ishlash	D1.01.6	Biologik materiallarni to'plash va ularga dastlabki ishlov berish
				D1.02.6	Baliq ovlashni yuritish bo'yicha material to'plash
				D1.03.6	Suv bioressurslari va ularning yashash muhitlarini muhofaza qilish
		D2.6	Suv bioresurslarini monitoring qilish	D2.01.6	Suv bioresurslari bazasiga ma'lumotlarni kiritish
				D2.02.6	Suv bioresurslari holati bo'yicha materiallarni tayyorlash
				D2.03.6	Suv obyektlarining baliqchilik pasportini yuritish
		D3.6	Suv bioresurslari boshqarishni biologik ta'minlash	D3.01.6	Suv bioresurslarining yashash muhitlari holatini tahlil qilish
				D3.02.6	Inson xo'jalik faoliyatining suv bioressurslari va ularning yashash muhitiga ta'sirini baholash
				D3.03.6	Suv bioresurslaridan samarali foydalanishning biologik asoslarini ishlab chiqish
		D4.6	Suv bioresurslarini monitoring qilish asosida	D4.01.6	Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish bo'yicha texnologik jarayonlarni yuritish

			baliqchilikda texnologik jarayonlarini tezkor boshqarish	D4.02.6	Suv bioresurslari yetishtirish va ko'paytirish texnologik jarayonlari samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish
				D4.03.6	Suv bioresurslarining sifati va xavfsizligi bo'yicha monitoring qilish
		D5.6	Suv bioresurslarini yetishtirish va ko'paytirish texnologik jarayonlarini rivojlantirish va strategik boshqarish	D5.01.6	Suv bioresurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlarini rivojlantirishni ilmiy-texnologik va metodologik ta'minlash
				D5.02.6	Suv bioresurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlarini rivojlantirishni strategiyasi asosida sanoat faoliyatini tashkil qilish
				D5.03.6	Suv bioressurslari yashash muhitini gidrobiologik va gidrokimyoviy monitoring qilish
				D5.04.6	Suv bioresurslarini ko'chirib o'tkazish va iqlimlashtirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Baliqchi (baliq boquvchi)	
Mashg'ulot nomining kodi:	62210	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3 oylik amaliy stajirovkadan o'tganligi	
Layohatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	Baliqshunos
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3- Baliqlarni urchitish, parvarishlash va chuchuk suv havzalariga qo'yib yuborish	A1.01.3-Jinsiy mahsulotlar olish va uvuldirilarni inkubatsiyalash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Baliqchilikda urchitish ishlarini tashkil qilish
		2. Hovuzda baliqlarni parvarishlash
		3. Chuchuk suv havzalariga baliqlarni qo'yib yuborish
		Ko'nikmalar:
		Akvakultura obyektlarini tayyorlash va saqlash
		Erkak baliqlardan tayyor jinsiy mahsulotlarni olish
		Uvuldiriq olish
		Uvuldiriqni inkubatsiyalash
		Bilimlar:
		Zoogigiyena asoslari
		Akvakultura biologik va jinsiy mahsulot olish tartibi
		Ishchi jihozlarda foydalanish tartibi
		Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
	A1.02.3-Baliq urug'i materiallari yetishtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Baliq urug'i materiallarini tanlash va baholash
		2. Chavoq yetishtirish
		Ko'nikmalar:
		Uvuldiriqni to'g'ri olish, urug'lantirishga tayyorlash va rivojlanishi uchun sharoit yaratish

		Baliqni yorish, baliq urug'ini olish, tashqi ko'rinishiga ko'ra sifatini baholash
		Bilimlar:
		Baliqlar va lichinkalarning fiziologik xususiyatlari
		Akvakultura obyektlari biologik ko'rsatkichlarini aniqlash usullari
		Qurilmalarning texnik xususiyatlari
		Mehnatni muhofaza qilish va sanitariya qoidalari
	A1.03.3-Tovar baliq yetishtirish	Mehnat harakatlari:
		1.Tovar baliq yetishtirish texnologiyasini amalga oshirish
		2. Baliqlarni oziqlantirish
		3. Tirik ozuqalar yetishtirish
		Ko'nikmalar:
		Tovar baliq yetishtirish
		Akvakultura obyektlarini oziqlantirish
		Korxonada oddiy ozuqa tayyorlash
		Tirik ozuqalar yetishtirish
		Suv sifatini aniqlash va tovar baliq sifatini baholash
		Bilimlar:
		Tovar baliq ko'rsatkichlarini aniqlash usullari
		Tovar baliq biologo-anatomik xususiyatlari
		Akvakultura obyektlarini oziqlantirish va oddiy ozuqa tayyorlash xususiyatlari
		Tirik ozuqalarni sifati va tarkibi normalari
		Mehnatni muhofaza qilish va sanitariya qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Baliqlar sog'ligi, ozuqalarning qonuniy talablar va standartlarga mosligi uchun javobgarlik
		2. Baliqlarni parvarishlashga to'g'ri yondashish, g'amxo'rlik qilish, texnologik jarayonlarni to'g'ri mustaqil bajarish
		3. Baliqlarni parvarishlash va oziqlantirish hamda asbob-uskunalaridan foydalanishda mustaqil qarorlar qabul qilish
A2.3- Binolar va suv havzalariga xizmat ko'rsatish	A2.01.3-Suv havzalarini baliq yetishtirishga tayyorlash	Mehnat harakatlari
		1. Suv havzalariga xizmat ko'rsatish
		2. Hovuzlarda normal sanitariya holatini saqlash
		Ko'nikmalar:
		Baliq yetishtirish texnologiyasiga ko'ra suv havzalarini tayyorlash
		Suv havzasi umumiy sanitariya holatini baholash
		Suv havzalariga texnik xizmat ko'rsatish
		Bilimlar:
		Baliq yetishtirish texnologiyasi
		Suv havzalari tuzilishi va turlari
		Konstruksiya mexanizmlari ishlash tartibi
		Mehnatni muhofaza qilish va sanitariya qoidalari

	A2.02.3 Obyektlarga texnik xizmat ko'rsatish	Mehnat harakatlari:
		1. Baliqchilik obyektlaridagi texnik jihozlarga xizmat ko'rsatish
		2. Suv havzalaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish
		Baliqlarga ozuqa tayyorlash, suvni isitish qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatish
		Suv parametrlarini nazorat qilish, baliq ovlash jihozlaridan foydalanish, filtrlash va aeratsiya vositalarini ta'mirlash
		Bilimlar:
		Suv va yer resurslariga xizmat ko'rsatish xususiyatlari
	Baliqchilikda qo'llaniladigan qurilmalarning texnik xususiyatlari	
	Mas'uliyat va mustaqillik	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
1. Texnik jihozlardan foydalanishda baliqlarga zarar yetkazmaslik uchun javobgarlik		
2. Baliqlarni urchitish natijalarini hisobga olish va rasmiylashtirishda mas'uliyat		
Texnik va/yoki texnologik talab		O'lchov va diagnostik uskunalar hamda yordamchi asboblardan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Ichki suv havzalari mashinalari va mexanizmlari mashinisti	
Mashg'ulot nomining kodi:	62220	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3 oylik amaliy stajirovkadan o'tganligi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Ichki suv havzalarida baliqchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3-Ichki suv havzalari dastgoh va mexanizmlarini foydalanishga tayyorlash hamda boshqarish	B1.01.3-Ichki suv havzalari dastgohlarini foydalanishga tayyorlash va boshqarish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ichki suv havzalari dastgoh va mexanizmlarini boshqarish
		2. Ichki suv havzalari dastgoh va mexanizmlarini xavfsiz ishlatishga tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Texnik hujjatlashtirish talablariga rioya qilish
		Dastgoh va mexanizmlarning ish parametrlarini kuzatish
		Dastgoh va mexanizmlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Dastgoh va mexanizmlarning tuzilishi
		Dastgoh va mexanizmlar ishlash tamoyillari
		Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
	B1.02.3-Ichki suv havzalari dastgohlarida mavjud kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish	Mehnat harakatlari:
		1. Dastgoh va mexanizmlarni texnik holatiga tashxis qo'yish
		2. Dastgoh va mexanizmlarga joriy texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash
		Ko'nikmalar:
		Suv qurilmalari buzilishi oldini olish

		Dastgohlar texnik ko'rsatkichlarini nazorat qilish
		Jihozlarni montaj qilish
		Texnik hujjatlashtirish talablariga rioya etish
		Avariya holatlarini bartaraf etish
		Bilimlar:
		Jihoz va dastgohlarning asosiy turlari
		Ish joyini tashkil etish talablari
		Baliqchilik qurilmalaridan foydalanish texnologik talablari
		Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyat
2. Jihoz va uskunalardan to'g'ri foydalanish uchun javobgarlik		
Texnik va/yoki texnologik talab		O'lchov va diagnostik uskunalar hamda yordamchi asboblardan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Ixtiolog	
Mashg'ulot nomining kodi:	21313	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Baliqchilik xo'jaliklarida, ilmiy-tadqiqot markazlarida 1 yildan 3 yilgacha amaliy ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Oliy ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	6	Baliq yetishtirish muhandisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.6-Ixtiologik kuzatuvlar natijasida to'plangan materiallarni laboratoriya sharoitida qayta ishlash	D1.01.6-Biologik materiallarni to'plash va ularga dastlabki ishlov berish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Nazorat ovlari va sanoat ovidan reprezentativ namunalar olish
		2. Ovlangan baliqlarni yoppasiga o'lchash va ularning tur tarkibini aniqlash
		3. Baliqlar oziqlanishi va serpushtligini aniqlash bo'yicha namunalar olish
		4. Baliqlarning tarqalishi, urchish (ko'payish) joylarining holati, ko'payish migratsiyalari, baliq chavoqlarining rivojlanishini kuzatish
		5. Umum qabul qilingan uslublar yordamida baliqlar oziqlanishi bo'yicha gidrobiologik namunalar yig'ish
		6. Gidrobiologik va gidrokimyoviy qurilmalar yordamida yashash sharoitining standart ko'rsatkichlarini o'lchash
		7. Hujjatlarni rasmiylashtirish va hisobotlar taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Suv bioressurslari turlarini aniqlash
		Nazorat ovlarni o'tkazish, nazorat va sanoat ovi natijasida ovlangan baliq va boshqa suv mahsulotlarini biologik tahlil qilish

		Dala tadqiqotlari davomida materiallar to'plash, ularni qayd etish, etiketkalash, saqlash va hujjatlashtirish Qurilma va jihozlardan foydalanganda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga amal qilish Bilimlar: Asosiy baliq va boshqa suv mahsuloti turlari Baliq va boshqa suv mahsulotlari sistematikasi va ularning identifikatsion belgilari Ixtiofaunaning tur tarkibi, baliqlar va boshqa suv mahsulotlari biologiyasi Dala ixtiologik kuzatishlari uslubiyoti
	D1.02.6- Baliq ovlashni yuritish bo'yicha material to'plash	Mehnat harakatlari: 1. Ovlash quollarining joylashuvi, ularning soni va qo'llanish xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar yig'ish 2. Ovlash quollari ko'rsatkichlarini baholash 3. Ovlash jarayonini: ov quollari soni, ov vaqti, ovlanadigan maydon, ovlash sharoitlarini nazorat qilish 4. Baliq ovlash faoliyatining ma'lumotlar bazasini yuritish Ko'nikmalar: Baliq ovlash va baliq qabul qilish Ovlash quollari ko'rsatkichlarini baholash va ovlash quvvatini aniqlash Ovlash hujjatlari va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash Bilimlar: Baliq ovlash quollarining klassifikatsiyasi va ularning tuzilmaviy xususiyatlari Baliq ovlash va sanoat ovi jarayonlarini tashkil qilish tartibi Ovlash quollari ko'rsatkichlarini aniqlash, baliq ovlashni boshqarish meyoriy hujjatlarini yuritish usullari Suv va kemalarda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga
	D1.03.6- Suv bioressurslari va ularning yashash muhitlarini muhofaza qilish	Mehnat harakatlari: 1. Xashaki baliqlarni ovlash 2. Baliq ovlash qoidalariga amal qilish 3. Suv obyektlari holatini kuzatish 4. Suv obyektlariga va ularning yashash muhitiga antropogen ta'sirni baholash 5. Suv bioressurslari haqida ma'lumotlar to'plash Ko'nikmalar: Baliq ovi va cheklangan ov qoidalariga rioya qilish Ovlash va baliqlar biologik ko'rsatkichlariga baho

		berish
		Suv bioressurslaring yashash muhitini muhofaza qilish
		Suv bioressurslari hayotchanligi va ularning yashash muhitiga antropogen ta'sirlar xarakterini aniqlash
		Bilimlar:
		Baliq ovi va cheklangan ov qoidalari
		Ovlash va baliqlar biologik ko'rsatkichlariga baho berish usullari
		Suv bioressurslari yashash muhitini muhofaza qilishga doir meyoriy hujjatlar
		Suv bioressurslari hayotchanligiga va ularning yashash muhitiga antropogen ta'sirlar xakteri
		Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
		1. Biologik materiallarni to'plash uchun ma'suliyat
D2.6-Suv bioressurslarini monitoring qilish	D2.01.6-Suv bioressurslari bazasiga ma'lumotlarni kiritish	2. Suv bioressurslari va ularning yashash muhitlarini muhofaza qilish bo'yicha mustaqillik
		Mehnat harakatlari:
		1. Suv bioressurslari obyektlari haqida ma'lumot to'plash
		2. Suv bioressurslaridan foydalanuvchilarning hisobini yuritish
		3. Ovlash qurollari hujjatlarini yuritish
		4. Baliq ovlash uchun berilgan ma'lumotlar bazasini yuritish
		5. Baliq ovlash statistikasini yuritish
		6. Biologik axborot ma'lumotlar bazasini yuritish
		Ko'nikmalar:
		Hisobot hujjatlarini yuritishda suv zahiralardan foydalanuvchilar bilan hamkorlik qilish
		Dasturiy ta'minotda ishlash
		Maxsus ma'lumotlar bazasi bilan ishlash
		Mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi, ishlab chiqarish va ekologik xavfsizlik bo'yicha yo'riqnoma talablariga amal qilish
		Bilimlar:
		Ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazasi tuzilishi
		Suv bioressurslaridan foydalanuvchilar reyestrini yuritish, baliq ovlash qurollari kadastrini yuritish bo'yicha yo'riqnomalar
		Biologik axborotlarning ma'lumotlar bazasini yuritish bo'yicha yo'riqnoma
		Baliqchilik reyestrini yuritish bo'yicha meyoriy hujjatlar
	D2.02.6-Suv bioressurslari holati bo'yicha	Mehnat harakatlari:
		1. Baliqlarning yoshi, oziqlanishi va serpushtligi bo'yicha to'plangan namunalarni laboratoriya

	materiallarni tayyorlash	sharoitida qayta ishlash
		2. Ovlangan baliq turi, o'lchami va tuzilishini aniqlash
		3. Yosh-o'lcham kalitini tuzish
		4. Ovlangan baliqlar yosh tarkibini hisoblash
		5. Baliqlar populyatsiyasining standart biologik ko'rsatkichlarini hisoblash
		Ko'nikmalar:
		Qayd qiluvchi tuzilmalar bo'yicha baliqlar yoshini aniqlash
		Baliqlarning oziqlanishi va serpushtligi bo'yicha namunalarni qayta ishlash
		Populyatsiyaning standart biologik ko'rsatkichlarini (tur, yosh-o'lchov tuzilmasi) hisobga olish
		Laboratoriya sharoitida qayta ishlangan namunalar ma'lumotini yuritish
		Laboratoriya sharoitida olingan ma'lumotlarni kompyuterga kiritib ma'lumotlar bazasini shakllantirish
		Bilimlar:
		Yosh-o'lcham kalitini tuzish usullari
		Ovlangan baliqlarning tur va yosh-o'lcham xususiyatlari
		Populyatsiyaning standart biologik ko'rsatkichlariga baho berish usullari
		Dala sharoitida to'plangan ixtiologik materiallar
		Suv bioresurslari holatiga baho berish bo'yicha meyoriy hujjatlar
D2.03.6-Suv obyektlarining baliqchilik pasportini yuritish		Mehnat harakatlari:
		1. Suv obyektlarini baliqchilik xo'jaligi xatlovidan o'tkazish
		2. Suv obyektlarining fizik, biologik xususiyatlarini aniqlash
		3. Suv obyektlaridan baliq xo'jaligida foydalanishni aniqlash va toifalarini o'rnatish
		4. Baliqchilik ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlar reyestrini yuritish
		Ko'nikmalar:
		Suv obyektlarini xatlovdan o'tkazish
		Baliqchilik meliorativ chora-tadbirlarni ishlab chiqish
		Baliqchilik reyestri to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi bilan ishlash
		Bilimlar:
		Suv obyektlarini xatlovdan o'tkazish tartibi
		Kompyuterdagi ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazasi tuzilishi va ishlash tamoyillari

		Baliqchilik ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlar reyestrini yuritish bo'yicha yo'riqnoma
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Suv obyektlarining baliqchilik pasportini yuritishda mas'uliyat
		2. Suv obyektlarini xatlovdan o'tkazishga ma'suliyat
D3.6-Suv bioressurlari boshqarishni biologik ta'minlash	D3.01.6.-Suv bioressurlarining yashash muhitlari holatini tahlil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Baliqlar populyatsiyasi va boshqa gidrobiontlar holatini baholashni rejalashtirish
		2. Suv biologik zahiralari yashash muhiti holatini kompleks ko'rsatkichlar bo'yicha baholash
		3. Hisobotlar, ma'lumotlar, xulosalar va boshqa hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Baliqchilik tadqiqotlari usullaridan foydalanish
		Turli tipdagi suv obyektlari dala ishlarini rejalashtirish
		Suv obyektlaridan baliq xo'jaligida foydalanish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish
		Bioressurlarning biologik xususiyatlari va miqdor ko'rsatkichlarini qayta ishlash uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish
		Bilimlar:
		Suv havzalari turlari
		Suv bioressurlarini taqdiq qilish usullari
		Suv bioressurlari va havzalarning ekologik xususiyatlari
		Suv bioressurlarining normal yashash muhitlari parametrlari
		Baliqchilik ma'lumotlarini kompyuterda ishlash va ma'lumotlar bazasiga kiritish usullari
	D3.02.6-Inson xo'jalik faoliyatining suv bioressurlari va ularning yashash muhitiga ta'sirini baholash	Mehnat harakatlari:
		1. Xo'jalik faoliyatining suv bioressurlariga ta'sirini baholash
		2. Antropogen omil nojuya ta'siri natijasida yetkazilgan zararni hisoblash
		3. Yetkazilgan zarar o'rnini qoplash chora-tadbirlarini ishlab chiqish
		4. Baliqchilik va davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish uchun materiallar tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Suv ekotizimiga antropogen ta'sirlarni tahlil qilish
		Loyiha hujjatlari bilan ishlash
		Suv bioressurlariga yetkazilgan zararni hisoblash usullaridan foydalanish
		Yetkazilgan zarar o'rnini qoplovchi tadbirlar hajmini aniqlash
		Zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash va tahlil qilish

		Bilimlar:
		Suv bioressurklariga yetkazilgan zararni aniqlash usullari
		Amaldagi yoki rejalashtirilgan faoliyat natijasida kelib chiqadigan zararni o'rnini qoplash tartibi
		Atrof muhitga ta'sirni baholash va zararni hisoblashning meyoriy asoslari
		Davlat ekologik va baliqchilik ekspertizasini o'tkazish tartibi
	D3.03.6-Suv bioressurklaridan samarali foydalanishning biologik asoslarini ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. Baliq ovlash va cheklangan baliq ovlash qoidalarining biologik asoslarini ishlab chiqish
		2. Baliq ovlashning optimal ko'rsatkichlari, umumiy ovlash miqdori, ovlash mumkin bo'lgan ov hajmining biologik asoslarini ishlab chiqish
		3. Suv obyektlaridan baliqchilikda foydalanishning biologik asoslarini ishlab chiqish
		4. Suv obyektlari melioratsiyasi rejasini ishlab chiqish
		5. Suv bioressurklari yashash muhitini saqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		Baliq ovlashni boshqarishning amaldagi tizimi samaradorligini tahlil qilish
		Baliqlar ushlash hajmining prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash
		Suv bioressurklari yashash muhiti ekologik holatini baholash
		Suv obyektlaridan baliqchilikda foydalanish istiqbollari baholash
		Bilimlar:
		Suv obyektlarini himoya qilish va baliq ovlashning huquqiy asoslari
		Suv bioressurklarining fizik va biologik xususiyatlari
		Suv havzalarining biologik mahsuldorligi
		Suv bioressurklarini boshqarishning meyoriy talablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Suv obyektlarini xatlovdan o'tkazishda ma'suliyat
		2. Suv bioressurklaridan samarali foydalanishda javobgarlik
D4.6-Suv bioressurklarini monitoring qilish asosida baliqchilikda texnologik jarayonlarini	D4.01.6-Suv bioressurklarini yetishtirish va ko'paytirish bo'yicha texnologik jarayonlarni	Mehnat harakatlari:
		1. Suv bioressurklari obyektlarini yetishtirish tizimlarini ishlab chiqish
		2. Turli tizimlarning turli jadallik tiplarida suvning sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish
		3. Hisobotlar, ma'lumotlar, xulosalarni tayyorlash va taqdim etish

tezkor boshqarish	yuritish	Ko'nikmalar:
		Baliqchilik tadqiqot usullaridan foydalanish
		Turli tipdagi suv obyektlari, sharoit va vazifalardan kelib chiqib kompleks dala ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish
		Suv obyektlaridan baliq xo'jaligida foydalanish vazifasini bajarish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish
		Biologik xususiyatlari miqdor ko'rsatkichlarini qayta ishlash uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish
		Bilimlar:
		Baliqchilik tadqiqot usullari
		Akvakultura suv biozahiralarini obyektlari biologik xususiyatlari
		Suv bioressurslari holatiga baho berish uchun materiallar to'plash va ularni qayta ishlash usullari
		Ma'lumotlarni rasmiylashtirish va hisobot taqdim qilish tartibi
	D4.02.6-Suv bioressurslari yetishtirish va ko'paytirish texnologik jarayonlari samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. Korxonada yetishtirilayotgan suv gidrobiontlarining biologik ko'rsatkichlarini o'rganish
		2. Korxonadagi suv gidrobiontlari umumiy zahirasini aniqlash
		3. Yetishtirilayotgan suv gidrobiontlarini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish
		4. Baliqchilik korxonasida yetishtirilayotgan suv gidrobiontlarini yetishtirish tizimlari samaradorligini baholash
		Ko'nikmalar:
		Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish
		Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish obyektlari biologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ish grafigini tuzish
		Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va joriy etish
		Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirishning zamonaviy jarayonlarini tadbiq etish bo'yicha loyihalar tayyorlash
		Bilimlar:
		Suv bioressurslarining normal biologik ko'rsatkichlari
		Suvning sifat ko'rsatkichlari parametrlari
		Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash tartibi
	D4.03.6-Suv boressurslarining sifati va xavfsizligi	Mehnat harakatlari:
		1. Suv bioressurslari obyektlari va ularning yashash muhitlari sifati, xavfsizligini ta'minlash maqsadida

	bo'yicha monitoring qilish	mikrobiologik tadqiqotlar rejalarini ishlab chiqish
		2. Olingan mikrobiologik namunalarni mikrobiologik ko'rsatkichlar standart usullari bo'yicha dastlabki qayta ishlash
		3. Mikrobiologik ko'rsatkichlar asosida ekilgan namuna natijalarini tahlil qilish
		Ko'nikmalar:
		Mikrobiologik ko'rsatkichlarni monitoring qilish maqsadlarida qo'llaniladigan jihoz va qurilmalarni zararsizlantirish
		Laboratoriya jihoz va qurilmalarini mikrobiologik namuna olish uchun tayyorlash
		Olib borilgan mikrobiologik tadqiqot natijalarini qayd etish
		Olingan namunalarni etiketkalash, saqlash va laboratoriyaga xavfsiz tashish
		Bilimlar:
		Suv obyektlarini himoya qilish talablari
		Baliqlar yashaydigan muhit parametrlariga qo'yilgan talablar
		Mikrobiologik ko'rsatkichlarning yashash muhiti uchun ruxsat etilgan va kritik miqdor ko'rsatkichlari
		Patogen mikrobiologik organizmlarni zararsizlantirish usullari
		Mikrobiologik ko'rsatkichlarni monitoring qilish, jihoz va qurilmalariga qo'yiladigan xavfsizlik talablari
		Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Suv bioressurslarining xavfsizligi va sifati uchun ma'suliyat
		2. Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish texnologik jarayonlarini boshqarishda mustaqil qarorlar qabul qilish
D5.6-Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish texnologik jarayonlarini rivojlantirish va strategik boshqarish	D5.01.6-Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlarini rivojlantirishni ilmiy-texnologik va metodologik ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlarini rivojlantirish maqsadida ularning ma'lumotlar bazasini shakllantirish
		2. Ixtiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra suv bioressurslari holatini tahlil qilish
		3. Ixtiofaunani to'ldirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish
		4. Suv havzalarida baliqlar tabiiy ko'payishi uchun zarur bo'lgan sun'iy urchitish joylarini tashkil qilish
		Ko'nikmalar:
		Suv bioressurslarini yetishtirish jarayonlarini rivojlantirish
		Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirishning

		innovatsion loyihalarini ishlab chiqish
		Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlari to'g'risida olingan materiallarni statistik usullarda qayta ishlash
		Bilimlar:
		Ixtiologiya asoslari va nazariyasi
		Innovatsion tadqiqot usullari
		Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlari tamoyillari
		Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlarida sanoat va boshqa harajatlari ko'lami
		Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha hisob kitoblar
	D5.02.6-Suv bioressurslarini yetishtirish va ko'paytirish jarayonlarini rivojlantirishni strategiyasi asosida sanoat faoliyatini tashkil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Yetishtirilayotgan suv bioressurslari obyektlari populyatsiyalarining biologik xususiyatlarini o'rganish
		2. Tabiiy va sun'iy suv havzalari baliqchilik va ekologik holatini baholash
		3. Baliqlarni sun'iy ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish
		4. Korxonaning baliqchilik faoliyatini optimallashtirish bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqish
		5. Korxonaning sanoat rejasini ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		Korxonaning sanoat ishlab chiqarish hajmini tahlil qilish
		Suv bioressurslari biologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ish grafigini ishlab chiqish
		Korxonani innovatsion rivojlantirishni rejalashtirish
		Bilimlar:
		Baliqlarning normal biologik ko'rsatkichlari
		Akvakultura obyektlarini ko'paytirish biotexnologiyasi
		Suv biologik zahiralaridan foydalanish bo'yicha xorijiy va mahalliy mutaxassislarning erishgan yutuqlari
	D5.03.6-Suv bioressurslarining yashash muhitini gidrobiologik va gidrokimyoviy monitoring qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Suv bioressurslari yashash muhitini gidrobiologik va gidrokimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha monitoring qilish
		2. Suv bioressurslari yashash muhitini gidrobiologik va gidrokimyoviy ko'rsatkichlar bo'yimcha namunalarni dala sharoitida yig'ish
		3. Gidrobiologik va gidrokimyoviy ma'lumotlarni to'plash uchun olinishi kerak bo'lgan namunalari

		miqdorini aniqlash
		4. Gidrobiologik va gidrokimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha olingan ma'lumotlar bazasini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Baliqchilik ahamiyatiga ega bo'lgan suv havzalarini saprobiologik tahlil qilish
		Suv havzalari tipiga ko'ra ularning troflik darajasini baholash
		Suv havzasi tabiiy ozuqa bazasini baholash
		Monitoring natijalarini ma'lumotlar bazasiga kiritish
		Bilimlar:
		Baliqchilik ko'rsatkichlarini monitoring qilish meyoriy hujjatlari
		Baliqchilik ahamiyatiga ega bo'lgan suv havzalari normal ko'rsatkichlari
		Gidrobiologik va gidrokimyoviy tahlil usullari
	D5.04.6-Suv bioressurklarini ko'chirib o'tkazish va iqlimlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Iqlimlashtirish chora- tadbirlarining biologik asoslarini ishlab chiqish
		2. Iqlimlashtirish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish
		3. Iqlimlashtirilgan suv bioressurklari chiqishini kuzatish
		4. Suv bioressurklarini iqlimlashtirish chora-tadbirlari natijalarini baholash
		Ko'nikmalar:
		Iqlimlashtirish obyektlarini tanlash
		Zaruriy iqlimlashtirish chora-tadbirlari xususiyatini, uzviyligini aniqlash
		Iqlimlashtiriladigan va ko'chirib o'tkaziladigan turlarni ovlash, saqlash va tashish
		Iqlimlashtirilgan va ko'chirib o'tkazilgan suv bioressurklari chiqishini kuzatish
		Iqlimlashtirish va ko'chirib o'tkazish chora-tadbirlari natijalarini kuzatish
		Bilimlar:
		Suv obyekti ixtiofaunasining tur tarkibi
		Iqlimlashtiriladigan yoki ko'chirib o'tkaziladigan turlar biologik xususiyatlari
		Suv bioressurklarini iqlimlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish tartibi
		Baliqchilik maqsadlarida baliq ovlash, ko'paytirish va ularni iqlimlashtirish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Suv bioressurklarini ko'chirib o'tkazish va iqlimlashtirish ishlarini tashkil qilishga mas'uliyat
		2. Suv bioressurklari yashash muhitini

		gidrobiologik, gidrokimyoviy monitoring qilishni tashkil etishda mustaqil qaror qabul qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		O'lchov va diagnostik uskunalar hamda yordamchi asboblardan samarali foydalanish

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

№	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi	Sh. M. Suvanqulov
2	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O'IB prorektori	A. Elmuradov
3	Samarqand veterinariya meditsinasi texnikumi direktori.	S.R. Bazarov
4	Samarqand veterinariya meditsinasi texnikumi ICHTBDO'	A.G'. Xayitov
5	Samarqand viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'ining birinchi urinbosari	O. A. Baqoyev
6	"Chorva sut servis" MCHJ rahbari	A. G'ulomov